

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXELOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддигов Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ	260
27. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ (XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)	268

Olimjonov X. A.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrası katta o‘qituvchisi., PhD

O‘zbekiston Milliy universiteti

Olimjonov_1860@mail.ru

TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR

ANNOTATSIYA

Maqolada Sovet hukumronligi davrida Turkiston ASSRda kutubxonalarni markazlashtirish jarayoni yoritilgan. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti qaroriga binoan barcha kutubxonalar Xalq ta’limi komissariati ixtiyoriga o‘tkazilib, kutubxonachilik bo‘limi tashkil etilgani ta’kidlangan. Turkiston Xalq kutubxonasining vazifalari, kutubxonachilar tayyorlash, katalog tizimi va bibliografik faoliyatning rivojlanishi tahlil qilingan. Kutubxonaning madaniy-ma’rifiy markaz sifatida tutgan o‘rni, kitobxonlar konferensiyalari va nashriyotchilik faoliyati yoritilgan. Kutubxonalar fondlarini boyitish, texnik modernizatsiya qilish hamda milliy adabiyotga e’tibor qaratish jarayonlariga alohida e’tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston Xalq kutubxonasi, markazlashtirish, kutubxonachilik, bibliografiya, katalog tizimi, kitob fondi, madaniy-ma’rifiy markaz, nashriyotchilik, xalq ta’limi, modernizatsiya.

KIRISH

Mamlakatimizda ma’naviy xazinalar bo‘lmish kutubxona ishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi kitoblar va adabiyotlar uchun zamonaviy kutubxonalarga asos solinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining asarlarida kutubxona va kitob mutolaasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratib, “Kutubxonalar – bu ma’naviyat va ma’rifat maskani, ilm o‘chog‘i. Aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yosh avlodni mutolaa va ilmga oshno etish – bizning muhim vazifamizdir” deya, ta’kidlagan [1].

1917-1924-yillarda Turkistonda kutubxona ishi tarixiga doir olib borilgan tadqiqot natijalariga e’tibor qaratsak, 1917-yilgi oktyabr inqilobidan so‘ng, Turkiston ASSRda madaniy-ma’rifiy sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilgan. Bu islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri kutubxona ishini tashkil etish va markazlashtirish hisoblangan. Kutubxonalar aholining savodxonligini oshirish, ilm-fan va madaniyatni targ‘ib qilishda hamda sovet g‘oyalari keng yoyishda muhim rol o‘ynagan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

1918-yil 30-sentabrda bibliograf Y.K.Betger kutubxonachilik ishi bo'yicha Turkiston o'lkasining rahbar-yo'l boshlovchisi etib tayinlangan. Bu ish bo'yicha yana bir qancha rahbar-instruktori tayinlangan [6]. Bundan tashqari, 1918-yilning kuzida kutubxonachilik ishini rivojlantirish va muvofiqlashtirish maqsadida turli hududlarda maxsus organlar tashkil etilgan. Ular orasida Markaziy kutubxona byurosi va mahalliy kutubxona kengashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Y.K.Betger ushbu jarayonda yetakchi mutaxassislardan biri sifatida faoliyat yuritib, kutubxonachilik bo'yicha dastlabki normativ hujjatlarning ishlab chiqilishida qatnashgan.

Shuningdek, kutubxonachilik sohasida yangi yo'l boshlovchilar tayinlanib, ular hududlarda kutubxona tarmog'ini kengaytirish, yangi usullarni joriy etish va aholining kitobga bo'lgan ehtiyojini qondirish bo'yicha ishlarni olib borganlar [11]. Bu davrda kutubxonachilik tizimi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlana boshladi. Xususan, 1919-yilda Xalq ta'limi komissarligi qoshida Maxsus kutubxona bo'limi tashkil etilgan. Ushbu bo'lim mamlakat bo'ylab kutubxonalarni rivojlantirish, ularni adabiyot bilan ta'minlash va kutubxonachilarni tayyorlash bilan shug'ullangan [4].

Kutubxonachilik ishi bo'yicha instruktorlarning asosiy vazifalaridan biri – aholining kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni yangi ilmiy-ma'rifiy adabiyotlar bilan tanishtirish edi. Shu maqsadda 1920-yillar boshida ommaviy kutubxonalar soni ortib, ularning faoliyati targ'ibot va madaniy-ma'rifiy yo'nalishda kengaytirilgan [15]. Bundan tashqari, kutubxona fondlarini shakllantirish va kataloglash bo'yicha yangi standartlar ishlab chiqildi. Bular orasida bibliografik kartoteka yuritish, ilmiy-texnik axborot xizmatlarini yo'lga qo'yish va kitoblarni mavzular bo'yicha tasniflash tizimi muhim ahamiyat kasb etgan [10].

1919-yil 14-aprelda Turkiston o'lkasida kutubxonalarni markazlashtirish haqida Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining qarori qabul qilingan. Barcha ommaviy, shahar, jamoat, shaxsiy kutubxonalar Turkiston Respublikasining Xalq ta'limi komissariati ixtiyoriga berilgan. Ularning faoliyatini boshqarib borish uchun u yerda kutubxonachilik bo'limi tashkil etilgan. Shular qatorida Turkiston Xalq kutubxonasi ham bor edi. 1919-yil kutubxona haqida Nizom qabul qilingan [12]. Unda belgilab berilganiga ko'ra, kutubxona joylardagi kutubxonalarga ko'rsatma berishi, yo'naltiruvchi va nazorat qilib turuvchi agent-mutaxassislarni jo'natishi, kutubxonachilik bo'limi bilan birgalikda o'lkada kutubxonachi xodimlarni tayyorlash kurslarini tashkil qilishi, o'lka kutubxona xodimlarining qurultoylarini o'tkazishi, joylardagi kutubxonalar uchun o'lka kitob fondini tashkil qilishi kerak bo'lgan [8]. Kutubxona Toshkent shahrida va boshqa

hududlarda ko'chma kutubxonalar, kutubxona filiallarini tashkil qilishi va nashriyotchilik faoliyatini ham olib borishi kerak edi. Ortiqcha nusxadagi adabiyotlar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan adabiyotlar kutubxona filiallarini tashkil etish maqsadida ajratilgan.

Shuningdek, 1920-yillarning boshida kutubxonalarni standartlashtirish, katalog tizimini joriy etish va bibliografik faoliyatni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan. Bu jarayonda mahalliy til va milliy adabiyotga e'tibor kuchaytirilib, kutubxona fondlariga Turkiston xalqlari tillaridagi kitoblar kiritila boshlangan [14]. 1920-yillarning o'rtalariga kelib, Turkiston Xalq kutubxonasi va boshqa milliylashtirilgan kutubxonalar faoliyatining yanada rivojlanishi uchun davlat tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rilgan. Kutubxona fondlarini boyitish, ularni texnik jihatdan modernizatsiya qilish va kutubxonachilar malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu davrda Turkiston Xalq kutubxonasi nafaqat adabiyot tarqatish markazi, balki ilmiy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etuvchi muassasaga ham aylangan. U yerda muntazam ravishda kitobxonlar konferensiyalari, ilmiy suhbatlar va ma'ruzalar o'tkazilgan. Shuningdek, kutubxona qoshida maxsus bibliografik bo'lim tashkil etilib, u turli mavzulardagi nashrlar bo'yicha kataloglar va bibliografik qo'llanmalar tayyorlash bilan shug'ullangan [16].

Turkiston Xalq kutubxonasi kutubxonashunoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda ham muhim rol o'ynagan. 1920-yilda bu yerda kutubxonachilik kurslari tashkil etilib, mahalliy kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan [5].

1921–1922-yillarda ular asta-sekinlik bilan Xalq Komissarlari Soveti ixtiyoriga, keyinroq esa Toshkent shahar xalq maorifi bo'limi ixtiyoriga o'tkazilgan. Bir necha yildan so'ng ular asosida shahrning hozirgi tuman kutubxonalari vujudga kelgan. Turkiston Xalq kutubxonasi uzoq joylarda, masalan, Farg'ona, Samarqand, Zarafshon, Qashqadaryoda o'zining bo'limlariga ega bo'lgan. 1919-yil O'rta Osiyoda birinchi kutubxona xodimlarining ikki oylik malaka oshirish kurslari ochildi. Ularda N.A. Burov, A.A. Metlenkov, YE.N. Betger va boshqalar dars berishdi. Kursda 40 kutubxonachi o'qigan. 1921-yil Turkiston Xalq Komissarlari Soveti "Turkiston Respublikasida kutubxonachilik ishini markazlashtirish haqida" dekret qabul qilindi. Unga muvofiq Xalq Komissarlari Soveti ixtiyoridagi barcha kutubxonalar, boshqa muassasa va tashkilotlarning kutubxonalari Turkiston Siyosiy maorif bo'limi ixtiyoriga o'tgan. Kutubxona 1923-yil Butunrossiya qishloq xo'jalik ko'rgazmasida, 1924-yil va 1926-yillarda I va II ilmiy kutubxonalarning Butunrossiya anjumanida va Butunrossiya bibliografik qurultoylarda qatnashgan. Kutubxonaning tashkiliy tuzilishi dastlab umumiy, Turkiston va Sharq bo'limlaridan iborat bo'lgan bo'lsa,

1919-yil aprelida bolalar o'quv zali, avgustdan vaqtli matbuot nashrlari bo'limi ochildi.

1924-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) huzurida kutubxonachilik bo'yicha maxsus kurslar yo'lga qo'yilgan. Bu kurslar mahalliy mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilgan va keyinchalik Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarning kutubxonalarida yuqori malakali kadrlar ishlashiga asos yaratgan [7].

Bundan tashqari, kutubxonalarni joylarda kengaytirish va ularni aholiga yaqinlashtirish maqsadida ko'chma kutubxonalar (bibliobuslar) tashkil etilgan. Ushbu tashabbus ayniqsa qishloq joylarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilgan [14, B. 64.].

Kutubxonachilik ishini markazlashtirish va kadrlar tayyorlash masalasi ham yo'lga qo'yilgan. 1919-yil may oyidan boshlab, Maorif Xalq komissarligida kutubxonachilik bo'limi tashkil etilgandan so'ng, Turkiston Xalq kutubxonasi bevosita ana shu bo'lim ixtiyoriga o'tgan. Bu davrda kutubxonachilik ishini markazlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Joylardagi kutubxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash va nazorat qilish maqs qilingan.

1921-yilda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan "Turkiston Respublikasida kutubxonachilik ishini markazlashtirish haqida" dekret qabul qilingan. Bu qarorga binoan, barcha kutubxonalar Xalq Ta'limi Komissarligi Siyosiy Maorif Bo'limi tasarrufiga o'tkazilgan. Bunday markazlashtirish kutubxonalar faoliyatini yaxshilash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yagona metodik rahbarlikni ta'minlashga qaratilgan [8].

Kutubxonalar tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik ta'minot masalasida ham ishlar qilingan. 1919–1924-yillar davomida kutubxona tarmog'i jadal kengaytirilgan. Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining qarorlariga muvofiq, har bir shahar va yirik qishloqlarda jamoat kutubxonalari ochilishi lozim edi. Shu davrga kelib, 1920-yil oxirida Turkiston ASSRda jami 84 ta ommaviy kutubxona va 150 dan ortiq kutubxona filiali faoliyat yuritayotgan edi [2]. Ularning barchasi Xalq Ta'limi Komissarligi nazorati ostida bo'lgan.

Biroq, kutubxonalar moddiy-texnik jihatdan qiyinchiliklarga duch kelgan. Birinchidan, kitoblar yetishmovchiligi sezilarli darajada edi. Kutubxona fondlarining asosiy qismini inqilobgacha faoliyat yuritgan xususiy va cherkov kutubxonalarining kitoblari tashkil qilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati rus tilida bo'lib, mahalliy aholining ehtiyojlarini qondira olmas edi. Ikkinchidan, binolar va moddiy ta'minot yetishmovchiligi kutubxona faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Milliy kutubxonachilikni rivojlantirishga urinishlar ham mavjud bo'lib, Turkiston ASSR hukumati mahalliy millatlar tilida kitoblar va nashrlar bilan ta'minlash muammosini hal etishga harakat qilgan. Shu maqsadda, 1921-yilda Toshkentda Sharq Kitobxonalarini rivojlantirish komissiyasi tashkil etilgan. Ushbu komissiya mahalliy tillarda, xususan, o'zbek, qozoq, tojik va turkman tillarida kitoblar nashr etishni yo'lga qo'yishga harakat qilgan.

Biroq, ushbu jarayonda muayyan muammolar ham yuzaga chiqdi: yetarli miqdorda mahalliy tillarda bosma kitoblar yo'qligi sababli, ko'plab kutubxonalar aholining ehtiyojlarini to'liq qondira olmagan.

Mutaxassis kadrlarning yetishmovchiligi sababli, kutubxona xizmatlari sifati past bo'lib qoldi. Kutubxonachilar asosan rus tili bilgan shaxslar bo'lib, bu esa mahalliy aholi uchun qo'shimcha to'siqlar yar vujudga keltirgan.

Mahalliy aholining madaniy an'analariga zid bo'lgan mafkuraviy siyosat olib borilishi natijasida kutubxonalarga bo'lgan ishonch susaygan.

Kutubxona ishida siyosiy va mafkuraviy jihatlar ham mavjud bo'lgan. Turkiston ASSR kutubxonalari faqatgina ilm-ma'rifat tarqatish joyi emas, balki sovet mafkurasini targ'ib qiluvchi vosita sifatida ham ko'rigan. 1920-yillarning boshlarida "Qizil kutubxonalar" deb nomlanuvchi maxsus kutubxonalar tashkil etildi [3]. Ularning asosiy vazifasi sovet mafkurasini targ'ib qilish, kommunistik g'oyalarni aholiga singdirish va eski an'anaviy tafakkurni yo'q qilish kabi vazifalarni ham bajargan.

Bu esa kutubxonachilik faoliyatiga qator salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, ilmiy va badiiy asarlardan ko'ra, siyosiy adabiyotlarga urg'u berilishi, ko'plab ilmiy va tarixiy asarlar "eskilik sarqiti" sifatida ko'rilib, ommaviy kitob fondlaridan chiqarib tashlanishi, diniy va milliy adabiyotlar taqiqlanishi, mahalliy aholi kutubxonalardan yetarlicha foydalana olmaganligi, boshqaruv markazlashdi, natijada mahalliy aholi manfaatlarini inobatga oluvchi mustaqil kutubxonachilik an'analari rivojlanmaganligi.

XULOSA

Turkiston ASSR hukumatining kutubxona ishini rivojlantirishga qaratilgan harakatlari muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, bu jarayon bir qator muammolar bilan to'qnash kelgan. Sovet hokimiyatining madaniy inqilobni kuch bilan amalga oshirishga intilishi natijasida kutubxonalar xalqning haqiqiy ehtiyojlarini qondirishdan ko'ra, mafkuraviy vosita sifatida faoliyat yuritgan.

Bunda quyidagi asosiy kamchiliklarni ajratib ko'rsatish mumkin: mahalliy tildagi adabiyotlarning kamligi kutubxonalarning keng ommaga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini cheklanganligi, siyosiy nazoratning kuchaytirilishi ilmiy va madaniy erkinlikka putur yetkazganligi, moddiy-texnik resurslarning

yetishmovchiligi kutubxonalar rivojlanishini sekinlashtirganligi, mahalliy mutaxassislarning kamligi kutubxona ishining samaradorligini pasaytirgan.

Shunday qilib, Turkiston ASSRdagi kutubxona siyosati murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lgan. Bir tomondan, savodxonlikni oshirish va ilm-ma'rifatni targ'ib qilishga harakat qilingan bo'lsa, boshqa tomondan, ushbu jarayon mafkuraviy nazorat bilan cheklanib, mahalliy aholining real madaniy va ilmiy ehtiyojlariga mos kelmagan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 245.]
2. Karimov A. “O'zbekistonda kutubxona ishi tarixi”. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 87.
3. Xidirov H. O'zbekistonda madaniyat va ma'rifat taraqqiyoti (XX asrning 20–30-yillari). – Toshkent: Fan, 2002. – B. 112.
4. Иванов Г. Н. Библиотечное дело в Советской России: Очерки. — М.: Либрис, 1985. — С. 54.
5. Исмоилов Н. Библиотечное образование в Туркестане. — Ташкент: Народное образование, 1978. — С. 43.
6. Источник: Кузнецов, М. Н. Развитие библиотечного дела в России в XX веке. — М.: Наука, 2005. — С. 112.
7. Камалов Б. История библиотековедения в Узбекистане. — Ташкент: Университет, 1992. — С. 87.
8. Каримов А. История библиотечного дела в Узбекистане. — Ташкент: Узбекистан, 1995. — С. 74.
9. Каримов А. История библиотечного дела в Узбекистане. — Ташкент: Узбекистан, 1995. — С. 102.
10. Князев, В. В. Основы библиотековедения. — М.: Культура, 1998. — С. 64.
11. Петров А. В. История библиотечного дела в России. — СПб.: Библиополис, 2010. — С. 87.
12. Рахимов, Ш. Развитие библиотечного дела в Туркестане (конец XIX – начало XX века). — Ташкент: Фан, 1982. — С. 98.
13. Саидов, Ш. Развитие национальной библиографии в Средней Азии. — Ташкент: Фан, 1989. — С. 56.
14. Саидова Д. Развитие библиотечного обслуживания в сельских районах Узбекистана. — Ташкент: Фан, 2001. — С. 65.
15. Сидоров П. А. Развитие массовых библиотек в СССР. — Л.: Просвещение, 1972. — С. 112.

16. Юсупов М. Библиотечное дело в Средней Азии. — Ташкент: Фан, 1983. — С. 102.

Олимжонов Х. А.

PhD., старший преподаватель кафедры «Новейшая история Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

Olimjonov_1860@mail.ru

МЕРЫ ПО ОРГАНИЗАЦИИ БИБЛИОТЕЧНОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается процесс национализации библиотек в Туркестанском крае, начатый 14 апреля 1919 года. Постановлением Совета народных комиссаров Туркестана все библиотеки были переданы в ведение Народного комиссариата просвещения, при котором был создан библиотечный отдел. Анализируются функции Туркестанской Народной библиотеки, подготовка библиотечных кадров, развитие каталожной системы и библиографической деятельности. Освещается роль библиотеки как культурно-просветительского центра, проведение читательских конференций и издательская деятельность. Отдельное внимание уделяется процессу пополнения библиотечных фондов, технической модернизации и развитию национальной литературы.

Ключевые слова: Туркестанская Народная библиотека, национализация, библиотечное дело, библиография, каталожная система, книжный фонд, культурно-просветительский центр, издательская деятельность, народное просвещение, модернизация.

Olimjonov Kh. A.

PhD., senior lecturer at the Department of «Modern History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

Olimjonov_1860@mail.ru

MEASURES FOR ORGANIZING LIBRARY AFFAIRS IN THE TURKESTAN ASSR

ABSTRACT

The article examines the process of library nationalization in the Turkestan region, initiated on April 14, 1919. By decree of the Turkestan Council of People's Commissars, all libraries were transferred under the jurisdiction of the People's Commissariat of Education, where a special library department was established.

The functions of the Turkestan People's Library, librarian training, catalog system development, and bibliographic activities are analyzed. The library's role as a cultural and educational center, its organization of reader conferences, and publishing activities are highlighted. Special attention is given to the expansion of library collections, technical modernization, and the promotion of national literature.

Keywords: Turkestan People's Library, nationalization, librarianship, bibliography, catalog system, book collection, cultural and educational center, publishing, public education, modernization.